

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI
“MASHINASOZLIK” fakulteti
“MASHINASOZLIK TEXNOLOGIYASI ” kafedrası
BITIRUV MALAKAVIY ISHI BO'YICHA
T U S H U N T I R I S H X A T I

Bitiruv malakaviy ishining mavzusi: *To'g'ri oqimli quritish qurilmasi uchun qoziq-vintli barabanni konstruksiyalash.*

Bitiruvchi: “TMJ” yo'nalishi,	_____	X.Axmedov
4- bosqich 1- gurux talabasi	_____	
Fakultet dekani	_____	dos.T.Almataev
Kafedra mudiri:	_____	dos. P.Radjibaev
Bitiruv malakaviy ishi rahbari:	_____	dos. O.Mamatqulov
Maslaxatchilar:		
Konstruktorlik qismi	_____	dos.O.Mamatqulov
Texnologik qismi	_____	dos.O.Mamatqulov
Xayotiy faoliyat xavfsizligi	_____	ass. B.Xamdamov
Iqtisodiy samaradorlik	_____	dos.A.Sarimsaqov
Taqrizchi:	_____	A.Dadaboev

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI
“MASHINASOZLIK” fakulteti
“MASHINASOZLIK TEXNOLOGIYASI ” kafedrası
BITIRUV MALAKAVIY ISHINI BAJARISH BO'YICHA
TOPSHIRIQ

Bitiruvchi: **AXMEDOV XURSHIDBEK RAVSHANOVICH**

(talabaning familiyasi, ismi-sharifi)

1. Bitiruv malakaviy ishining mavzusi: **To'g'ri oqimli quritish qurilmasi uchun qoziq-vintli barabanni konstruksiyalash.**

Institut bo'yicha **2011 yil «07» dekabrda 293- son buyruq bilan tasdiqlangan.**

2.Bitiruv malakaviy ishini bajarish uchun ma'lumotlar:

2 CBO -10 Paxta quritish qurilmasini texnik pasporti.

3.Tushintirish xatida keltiriladigan ma'lumotlar (70-80 varaq A4 formatda qo'lyozma tarzida yoki 40-50 varaq kompyuterda yozilgan matnlar):

a) Asosiy qismi bo'yicha: **Kirish, adabiyotlardan ma'lumotlar; mavzuni asoslash; konstruktorlik qismi: quritgichning tuzilishi va ishlash tartibi.**

b) Texnologik qism bo'yicha: **detalning tayyorlash texnologik jarayonini ishlab chiqish.**

v) Xayotiy faoliyat xavfsizligi qismlari bo'yicha. **Texnika xavfsizligi. Quritish mashinalari xavfli zonalari va ularga qo'yiladigan xavfsizlik talablari.**

g) Iqtisodiy qismi bo'yicha: **iqtisodiy samaradorlikni aniqlash.**

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

- O'zR Prezidenti qarorlari va asarlari -
- Ilmiy-texnika adabiyotlar -
- Darsliklar, o'quv qo'llanmalar –

4. Bitiruv malakaviy ishining chizmalari ro'yxati (A2 formatda 5-6 list vatman):

a) Mashina, dastgox yoki jixozni umumiy ko'rinishi chizmasi;

b) Uzel yoki yig'ma birlik va detallarini chizmalari;

v) Detal tayyorlash texnologik jarayoni chizmalari.

5. Bitiruv malakaviy ishi qismlari bo'yicha maslaxatchilar:

No	Bitiruv malakaviy ishining qismlari	Boshlanish qismi	Tugallanish muddati	Imzo	Maslaxatchilar-ning familiyasi
1	Asosiy qismi a) Kirish b) Adabiyotlardan ma'lumot v) Mavzuni asoslash	11.01.2012	05.04.2012		O.Mamatqulov
2	g) Konstruktiv qismi yangi yaratilgan quritish qurilmasi uchun qoziq-vintli barabanni tuzilishi, ishlashi va parametrlarini hisoblash				O.Mamatqulov
3	Texnologik qismi Detalni tayyorlash texnologik jarayonini ishlab chiqish	06.04.2012	19.05.2012		O.Mamatqulov
4	Hayotiy faoliyat xavfsizligi qismi	20.05.2012	30.05.2012		B.Xamdamov
5	Iqtisodiy qismi	31.05.2012	07.06.2012		A.Sarimsaqov

6. Topshiriq berilgan sana: 10. 12. 2011 yil

7. Tugallangan bitiruv malakaviy ishini topshirish sanasi: 15.06. 2012 yil

Bitiruv malakaviy ishi rahbari: dos.O.Mamatqulov _____

Topshiriqni bajarish uchun qabul qildim: X.Axmedov _____

Mashinasozlik texnologiyasi kafedrasi mudiri: dos. P. Radjibaev _____

M U N D A R I J A:

1.	Kirish
2.	Asosiy qism:
2.1.	Adabiyotlardan ma'lumotlar.....
2.2.	Mavzuni asoslash
3.	Konstruktorlik qism:
3.1.	Qoziq-vintli barabanni tuzilishi.....
3.2.	To'g'ri oqimli quritish qurilmasining ishlash tartibi.....
3.3.	Qoziq – vintli quritish qurilmasining issiqlik sarfi va quvvatini xisobi
4.	Texnologik qism:
4.1.	Detalning tayyorlash texnologik jarayonini ishlab chiqish
5.	Hayotiy faoliyat xavfsizligi
6.	Iqtisodiy qism
7.	Xulosa
8.	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati
9.	Ilova

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012 yil 17 fevral kuni «Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizasiya qilishning eng muhim sharti» mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqida ta'lim tizimini isloh etish masalalari-zamonaviy davlatning izchil va barqaror taraqqiyoti, avvalambor, uning iqtisodiy rivojlanishi yo'lidagi muammolarni yechish bilan bevosita bog'liq xolda ko'rilyotganiga e'tibor qaratgan. Sir emaski, bu mavzu biz boshimizdan kechirayotgan hozirgi kunlarda, dunyodagi deyarli mutloq ko'pchilik davlatlar 2008 yilda boshlangan global miqyosdagi yangi resessiya to'lqinlarini keltirib chiqarish xavfini tug'dirayotgan jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy ta'siri ostida qolib kelayotgan bir paytda aloxida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda, umumiy e'riofga ko'ra, XXI asr globallashuv va chegaralarning barham topish davri, axborot kommunikasiya texnologiyalari va internet asri desak mubolag'a bo'lmaydi dedi o'z so'zida. Avvalo shuni ta'kidlash zarurki, bundan 15 yil oldin qabul qilingan, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi deb nom olgan ta'lim soxasini isloh qilish dasturi mamlakatimizda yangi jamiyat qurishning bosqichma-bosqich va tadrijiy rivojlanish prinsipiga asoslangan iqtisodiy va siyosiy isloxotlarning biz tanlagan “o'zbek modeli” – o'z taraqqiyot yo'limizning ajralmas tarkibiy qismidir. Biz ta'lim tizimida o'quvchilarning nafaqat keng bilim va professional ko'nikmalarni egallashi, ayni paytda chet mamlakatlardagi tengdoshlari bilan faol muloqot qilish, bugungi dunyoda ro'y berayotgan barcha voqea xodisalar, yangilik va o'zgarishlardan atroflicha xabardor bo'lish, jahondagi ulkan intellektual boylikni egallashning eng muhim sharti hisoblangan xorijiy tillarni ham chuqur o'rganishlari uchun katta ahamiyat bermoqdamiz [1].

Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi [2].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 2011 yil 20 maydagi "Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustaxkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-1533-son qaroriga asosan bizning institutimiz Andijon mashinasozlik institutiga aylantirildi [3].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 27 yanvar kuni bo'lib o'tgan qo'shma majlisidagi "Mamlakatni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish-ustivor maqsadimizdir" mavzusidagi ma'ruzalari mazmun-mohiyati va undagi xulosalardan kelib chiqqan holda paxta tozalash sanoatini texnik va texnologik yangilash, uning raqobatbordorligini keskin oshirish, eksport salohiyatini yuksaltirishda paxta tozalash korxonalari zimmasiga ham aniq vazifalar qo'yildi. O'zbekiston Respublikasining bozor munosabatlariga o'tish davrida paxta tozalash korxonalari ishchilarining oldiga ishlab chiqarish harajatlarini kamaytirish bilan yuqori ish unumdorligiga erishish, ishlab chiqarilayotgan tolaning sifatini oshirish va qayta ishlash jarayonida tolaning chiqindiga chiqib ketish xollarini oldini olish va ularni bartaraf etish vazifalari qo'yildi. Bu vazifalarni bajarishda xozirgi kunda ro'y berayotgan jahon moliyaviy inqirozi oqibatlarining ta'sirini har tomonlama hisobga olishimiz, korxonaning iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ushbu jarayonlar ta'siri nuqtai-nazaridan shakllantirishimiz va ularni izchil amalga oshirishimiz taqozo etiladi [4].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 28 noyabrdagi UP-4058 sonli Farmoni va unga tegishli 2009 yil 27 yanvardagi PP-1048 sonli iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llash, ularni muqobil ish bilan ta'minlash va eksport potensialini oshirish to'g'risidagi qaroridan kelib chiqadigan vazifalarni amalga oshirishda paxta yetishtirishi va uning xom ashyosini paxta tozalash korxonalarida dastlabki ishlashni takomillashtirish, buning natijasida paxta tolasining yuqori reytingli, jahon bozorida yuqori talabga ega bo'lgan navlarini ishlab chiqarishga muhim o'rin ajratildi [5].

Bunda asosiy e'tibor sohalarni modernizasiyalash, sohalararo kooperasiyani kengaytirish va lokalizasiyalash masalalriga qaratilishi kerak bo'lib, ularning hal etilishi ishlab chiqarishga yo'naltirilgan mahsulot turlari importini qisqartirish va mavjud ashyoviy-texnik resurslarni qat'iy tejash hisobiga ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarhini 20 foizga kamaytirish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov imzolagan "2007-2011 yillarda paxta tozalash sanoati rekonstruksiya va modernizatsiya qilish dasturi haqida" 03.04.2007 yildagi 70-sonli hukumat qarori hozirgi etapdagi tarmoqning rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'lib, bu paxtani dastlabki ishlash va ishlab chiqariladigan mahsulotning raqobatbardoshlik samaradorligini oshirish masalasi davlatimizning doimo e'tiborida ekanligini dalolatitdir. Ushbu dastur bo'yicha keyingi 5 yil davomida tarmoqning 41 ta korxonasini rekonstruksiya va modernizasiya qilish mo'ljallangan, buning uchun tegishli mablag' manbalari aniqlangan [6].

Tarmoqni yaqin yillarda modernizasiya qilish dasturini amalga oshirish Respublikaga paxta tolasini chiqishining 33,2 foiz va undan yuqori bo'lishini, yuqori reytingga ega 1-2 navli paxta tolasini, assortimentida yuqori sinflar ("oliy" va "yaxshi") ulushini 85 foizga yetkazgan holda, solishtirma hajmi 85 va undan yuqoriroq foizga yetkazish hisobiga sezilarli darajada iqtisodiy samara beradi. Elektr energiya sarfi, ekspluatasiya va boshqa sarf xarajatlarini kamaytirish hisobiga mahsulot ishlab chiqarish tannarxini kamida 20 foizga pasaytirish kutilmoqda. Modernizasiya dasturini amalga oshirilishida sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishni respublika korxonalarida lokalizatsiyalashtirilishi soxa rahbariyatining doimiy nazarida bo'lgan.

Respublikaning ilmiy tekshirish, loyixa-konstruktorlik tashkilotlarining va ixtisoslashgan mashinasozlik korxonalarining ishlanmalari tufayli soxa korxonalari, asosan, respublikada ishlab chiqarilgan texnologik uskunalar bilan jixozlangan bo'lib, ushbu uskunalar yuqori sifatli, dunyo bozorida xaridorgir bo'lgan mahsulotlar ishlab

chiqarish imkonini beradi. Paxta xom ashyosini quritish va tozalashda ko'pgina izlanishlar olib borilgan. Ushbu izlanishlar shuni ta'kidlaydiki, paxta xom ashyosini quritishda issiqlik agentining xarorati yuqori bo'lsa, paxta xom ashyosi me'yoridan ortiq qurib ketib (5,5%) qayta ishlanayotganda tolaning sinishiga olib keladi. Shuning uchun paxta xom ashyosining sifatini saqlab qolish yo'lida quritish rejimini optimal variantini tanlab olish kerak [6].

Paxtani quritish barabanlarida asosiy texnologik ko'rsatkichlarini xisoblash 2SB-10, SBO quritish barabanlarini takomillashtirish bitiruv malakaviy ishimni olib borish yuqori namlikni ajratib oladigan va mayda iflosliklardan tozalaydigan, paxtani tabiiy sifat ko'rsatkichlarini saqlay oladigan kam energiya va gaz sarflaydigan barabanlarni joriy etish bitiruv malakaviy ishimning asosiy vazifasi xisoblanadi.

Ishning dolzarbligi: hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida sifatli raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish asosiy masalalardan biri bo'lib xisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishimning maqsadi: Quritish jarayonida paxtani eshilishiga yo'l qo'ymaslik, uskunaning ish unumdorligi yuqori bo'lishligi hamda paxtani quritish jarayonida hosil bo'ladigan, paxta tarkibidagi passiv iflosliklarni o'z vaqtida ajratib olish kabi omillarni taxlil qilib, o'rganilib, paxta xom ashyosini quritish uchun yangi uskunani asosiy parametrlari tanlanadi.

Bitiruv malakaviy ishimning vazifasi:

- paxta xom ashyosini quritish bo'yicha bajarilgan ilmiy ishlar ya'ni, maxalliy va chet el ilmiy tadqiqotchilari ishlarini taxlili;
- paxtani quritish uchun tanlangan quritish uskunasining asosiy ko'rsatkichlari va parametrlarini aniqlash.
- uskunaning asosiy ishchi qismida paxta xom ashyosining harakati o'rganilib qoziq vuntli qurilmaning maxsus qozig'ining konstruksiyasini o'rganish.

- quritish uskunasiga sarf bo'layotgan issiqlik sarf miqdorini xisolash.

Bitiruv malakaviy ishimni ob'ekti va predmeti: Paxta xom ashyosini yangi uskunada quritish texnologiyasida ta'sir etuvchi asosiy omillarni o'rganish.

Ishning tuzilishi va xajmi: bitiruv malakaviy ishi kirish va to'rtta qism, umumiy xulosalar va adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Bitiruv malakaviy ishim 88 betdan iborat bo'lib 10 ta rasm, 8 ta chizma, 9 ta jadval va 27 ta adabiyotlar ro'yxati hamda internet ma'lumotlarini o'z ichiga oladi.

1. Paxta qurituvchi qurilmalar bo'yicha adabiyotlardan ma'lumotlar.


1.1. Paxta quritish qurilmalarini issiqlik bilan ta'minlash jixozlari.

Paxta quritgichlari issiqlik bilan ta'minlash maxsus qurilma - issiqlik ishlab chiqargichlar bilan amalga oshiriladi [7]. Ularda yonilg'ini yoqish, olinadigan yuqori xaroratli yonish mahsulotlarini atmosfera xavosi bilan aralashtirish (kerakli xaroratgacha va vazniy sarfgacha xaroratini pasaytirish) va bu gaz havo aralashmasi - quritish agentini quritish kamerasiga berish ishlari bajariladi.

Har qaysi paxta quritgich, odatdagidek, issiqlik bilan ta'minlash qurilmasi bilan bog'lanadi. Qurilma quritgich ishlab chiqarish quvvatiga to'g'ri kelib, yonilg'ining to'liq (kimyoviy va mexanik to'liq yonmasligisiz) yonishini ta'minlashi va paxtaning dastlabki qayta ishlanishini, sanitariya-gigiena va texnologiya talablariga javob beradigan quritish agenti tayyorlab berishini ta'minlashi kerak. Bunda faqat issiqlik ishlab chiqargichlar loyixalanayotganda xisobga olingan va fizik-kimyoviy tarkibi bo'yicha amaldagi standartlar talablariga javob beradigan yonilg'ilardan (texnik kerosin va tabiiy gaz) foydalanishga ruxsat etiladi [7].

Issiqlik ishlab chiqargichlarni joylash va o'rnatish ishlari loyixaga qat'iy amal qilgan xolda bajarilishi va paxtani tayyorlash, tashish, quritish, saqlash va qayta ishlashda yonish xavfsizligi talablari hamda gaz xo'jaligidagi xavfsizlik qoidalariga rioya qilinishi kerak. So'nggi yillarda paxta quritish qurilmalarida eskirgan agregatlar samaradorroq - suyuq va gazsimon yonilgidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan TJ-1,5 va ICh-1,9 issiqlik ishlab chiqargichlarga almashtirildi. Mazkur issiqlik ishlab chiqargichlar quritish agentining xarorat ko'rsatkichlarini 70-300 °C va uning xajmiy sarfini 18000-24000 m³ /h kabi keng diapazonda sozlash imkoniga egaki, shular tufayli har qaysi quritish qurilmasini issiqlik bilan ta'minlash mumkin [7].


Yonilg'ini siklon usulida yoqish. yondirishni tugallash qurilmali issiqlik ishlab chiqargachlar yoqish maxsulotini amalda kimyoviy va mexanik yonib tugallangan xolatda olish imkonini beradi.



1.1.- Rasm.

TJ-1,5 rusumli issiqlik ishlab chiqargichning sxemasi:

1 - filtr; 2 - nasos; 3 - qobiq; 4 — eshikcha; 5 — qopqoq; 6 – o'tga chidamli gisht;
7 - yondirish kamerasi; 8 - quvur; 9 - teshiklar; 10 - yonish jarayonini tugallash vositasi;
11 — aralashtirish kamerasi; 12 - ventilyator; 13 — tutun so'rgich; 14 - panjarali qopqoq.



1.2. Rasm. IICh-1,9 issiqlik ishlab chiqargich sxemasi:

1 - yondirish kamerasi; 2 - yonish jarayonini tugallash kamerasi; 3 - aralashtirish kamerasi; 4 - quvur; 5 - ventilyator.

Suyuq yonilg'i (texnik kerosin) $29,4 \cdot 10^4$ - $78,5 \cdot 10^4$ Pa (3-8 kg/sm²) bosim ostida purkagichlarga beriladi va changlatilgan xolda yonish kamerasining ustki qismiga boradi, u yerda yuqori xarorat ta'sirida bug'lanadi hamda qisman gaz xolatiga kiradi. Bir vaqtning o'zida kameraning bu zonasiga yuqorigi quvur orqali tangensial yo'nalishda birlamchi xavo kiritiladi, u tezlikda yonilga massasi bilan aralashib, yonuvchi aralashma xosil qiladi. Bunda xosil bo'lgan alanga yoqish traktikidagi tutun so'rgich bilan xosil qilinadigan havo siyraklanishini hisobiga yonish kamerasi bo'yicha pastga tarqaladi, tangensial yo'nalishda quritilgan ikkilamchi xavo oqimi bilan uchrashadi va tezlik bilan gazlashib bo'lgan yonilg'i bilan aralashadi. Har qanday ish sharoitida issiqlik ishlab chiqargichni foydali ish koeffisienti 95-98 % atrofida o'zgaradi.

Bitiruv malakaviy amaliyotimni Andijon paxta OAJ da o'tadim. Bu yerda quritish qurilmalarini va boshqa texnikalarni ko'rdim va o'rgandim. Quyida Andijon paxta OAJda ishlatilayotgan issiqlik ishlab chiqargich rasmi keltirilgan.



1.3. Rasm. Andijon paxta OAJdagi ishlatilayotgan issiqlik ishlab chiqargich

1.2. BARABANLI PAXTA QURITGICHLAR.

Ma'lumki paxtani seleksion navlari bo'yicha chiqadigan mahsulotlar miqdori va asosiy ishlab chiqarish jarayonidagi chiqindilarning me'yorlari O'zpaxtasanoat uyushmasining 2009 yil 6 avgustdagi №55-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan. Shuningdek ushbu xujjatlar va tavsiyalar to'plamida paxtani quritish – tozalash sexlarida ruxsat etilgan tabiiy ravishda kamayish me'yorlari ham ko'rsatib o'tilgan [8].

Me'yoriy hujjatlar va tavsiyalar to'plamida bir tonna paxtani quritish uchun sarf bo'ladigan yoqilg'i va energiya me'yorlari ham o'z o'rnini topgan.

Paxta sanoatida namligi yuqori bo'lgan paxtalarni quritish texnikasining rivojlanishi aerofantanli, kamerali va shnekli quritkichlardan boshlangan. Xozirga kelib ularning texnologik va iqtisodiy ko'rsatgichlarining pastligi natijasida ishlab chiqarishdan olib tashlangan [9].

O'zbekiston respublikasining paxta sanoat aksionerlik jamiyatiga qarashli paxtaga dastlabgi ishlov berish aksionerlik jamiyatlarida namligi 10% va undan ortiq paxtalarni «barabanli» tipidagi quritish jixozlaridan foydalanib quritilmoqda, «baraban» tipidagi quritish jixozlarining unumdorligi 1,5 dan 10t/soat bulib va namlikni oshish xususiyati 10% gacha yetadi. Paxtaga issiqlikni berish uzluksiz konvektiv va aralash xolda amalga oshiriladi. Paxtani quritgichda bo'lish vaqti

boshqarilib turiladi. Olovli koloriferlarda qizdirilgan xavo yordamida issiqlik beriladi.


Dastlabki barabanli quritgich 1955 yili tayyorlangan [9].

Quritgichning bu konstruksiyalari, texnologik ko'rsadgichlari yaxshi bo'lgan 2SB-10, SX4-4 va 2SBS turidagi yuqori unumdorlikka ega bo'lgan paxta quritish barabanlarni yaratishga sabab bo'ladi. Paxta quritish barabanlariga paxtani aralashtirib berish va quritish jarayonini tezlatish imkonini beradi lopastlar bilan ta'minlangan [10]. (1.4-rasm).


Quyida ayrim konstruksiyadagi barabanli quritish qurilmalarining texnik tavsifnomasi keltirilgan.

Nomi	2SBS	2SB-10	SXN-3M
Quritilgan paxta bo'yicha unumdorligi Kg/soat	5000	10000	5000
Namlikni olishi %	10	7-8	3-4
Namlik buycha unumdorligi kg/soat	450	650-750	145-192
Quritgichga kirishda qizigan xavoni xarorati OS	495 gacha	550 gacha	493 gacha
Quritgichning ichki qurilmasi	Sirtli	Kutaruvchi loposti	Loposti
Barabanning aylanish chastotasi ayl/min.			
Lopastli val aylanishi ayl/min	7,5-17,5	10	—
	—	—	56
Baraban diametri	3,2	3,2	1,3 x 1,6
Baraban uzunligi	7,5	10,0	4,9


Paxta quritgichning markasi	Unumdorligi Kg/soat	Nam olish xususiyati
2 SXL-1,5	1500	10
SXB-1,5	2000	10
SXN-3	5000	3-4



A-ko'taruvchi- lopastli



B-sektorli



V-lopastli

1.4. Rasm. Paxta quritish barabanlaridagi lopastli qurilmalarning sxemasi.



1.5.-Rasm. Andijon paxta OAJ dagi barabanli paxta quritgich.



1.6.-Rasm. Andijon paxta OAJ dagi barabanli paxta quritgichning ichki ko'rinishi

1.3. AQSh dagi paxta quritgichlar to'g'risida ma'lumotlar.

AQShda asosan bashnyali paxta quritgichlarning turli sonli tokchalilari qo'llaniladi. Bunda paxtani quritish uchun beriladigan issiqlik miqdori, quritilayotgan quritish agentini miqdori bilan boshqariladi. (10)

Bu turdagi quritish moslamasi quyidagi afzalliklarga ega (10).


- 1) paxtaga issiqlikni yuqori shijoat bilan berishi.
- 2) Quritish moslamasining, paxta massasi katta bo'lganda ham ishlay olish imkoni.
- 3) Quritish agentini yopiq sikilda qayta qo'llash mumkinligi.


«kontinental / moss –gordin,» «plat-lyummus» va xardvig-etter» firmalari bashnyali paxta quritish moslamasini ishlab chiqaradilar (1.7. rasm).

Quritish texnologik sxemasida, paxta bunkerli boshqaruvchi oziqlantirgichdan va quritgichning tokchalari orqali o'tib to separatorli tozalagichgacha turbali o'tkazgichda quritish agenti, qizigan xavo paxtaga ta'sir qilish bilan birgalikda uni tashishga va quritishga xizmat qilishi nazarda tutilgan. Shunday qilib quritish tizimi, quritgichgacha bo'lgan turbali o'tkazgich, bashnyali quritgich, separatorli tozalagichgacha bo'lgan turbali utkazgich + separatorli tozalagichlardan tashkil topgan. To'rtta arrali paxta tozalash zavodi uchun parallel xolda ikki tizim quritish moslamalarining har biridan ikkitadan quritgichning ketma-ket qo'yilishi nazarda tutilgan. Quritish tizimida paxta bilan quritish agetini o'zaro ta'sirini ahamiyati, paxta bilan qizigan xavoni doimo xamkorlida bo'lishidir. Bunda qizigan xavoni tezligi paxta tozalagichdan bir necha marta katta bo'lishi yuqori temperaturali qizigan xavo paxtani kuyishiga yo'l qo'ymaydi. Qizigan havo va paxta yo'nalishining quritgich polkalaridagi ko'p qirrali o'zgartirishi

xavo oqimini turubolentli xarakatlanishiga olib keladi va natijada paxtani titilishiga sabab bo'lib uni qurishi va yaxshi tozalanishiga sabab bo'ladi.


(1.7-rasm) Bashnyali quritgichning qirqim ko'rinishi quyida keltirilgan.






1.7. Rasm. Bashnyali quritgichning qirqim ko'rinishi.

1- paxta kirish partubkasi; 2 – polka; 3 - paxta chiqarish partubkasi.




1




2




3





4



5



6





1.8. Rasm. Bashnyali quritgichning qirqim ko'rinishi.

- 1- paxta kirish patrulkasi; 2 - polka; 3 - qoziqli baraban; 4 - kolosnikli panjara;
5 - bunker; 6 - paxta chiqarish partulkasi.

AQSh paxta tozalash zavodlarida qo'laniladigan quritgichlarning konstruktiv tuzilishi quyidagicha.

Bashnyali quritgichlar 23 ta polkali bo'lib, ular 4 ta seksiyadan tashkil topgan, to'g'ri to'rburchakli geometrik paralelopipedni tassavur qiladi. Kamerani bir tomonida bir barabanli qoziqli tozalagich o'rnatish uchun ochiq joylari bo'ladi. (1.8.-rasm). Quritgichning yuqori qisimida ham paxta bilan qizigan xavoni kirishi uchun va pastidan ularni chiqishi uchun patrulkalar bor. Bashnyali quritgichlarda paxtani quritish quyidagicha amalga oshiriladi. Avto boshqariluvchi oziqlantirgichdan ejeksion varonkaga tushgan paxta, 20-25 m /sek. tezlik bilan xarakatlanayotgan quritish agenti bilan ilashib, turbali o'tkazgich orqali 10-12 m/sek tezlik bilan quritgichning birinchi seksiyasiga kelib tushadi. Quritgichda qizdirilgan xavo, shuningdek paxtani tezligi 7-8 m/seq gacha kamayadi. Bunda paxtani quritgichda bo'lish vaqti 10-12 sequndni tashkil qiladi. Turbali o'tkazgichning qo'ndalang kesim yuzasiga nisbatan, polkalar orasining ko'ndalang kesim yuzasi 2,4 marta katta bo'lganligi uchun u yerda quritish agentining tezligi ancha kam bo'ladi.

Paxta va quritish agenti quritgich polkalari va tozalagich seksiyalaridan o'tib separator tozalagichga kelib tushadi.

Bashnyali quritgichning texnik tavsifi quyidagicha:

[illegible]

Murrey firmasining barabanli quritgichi.

“Murrey” firmasining barabanli quritgichi setkali baraban ichiga shnek oʻrnatilgan germetik metalli kamerani tassavur qiladi.

Kameraning old va orqa devorlariga barabanning tayanch podshipniklari oʻrnatilgan. Kameraning ikki yon tomonida uzunligi boʻyicha oltita rezinali maxkamlagichli koʻrish (kuzatish) darchalari oʻrnatilgan. Oʻng tomonida barabanga issiqlik agentini uzatuvchi

soplo joylashgan. Quritgich barabani diametri 4 mm li zanglamas po'lat simdan maxsus karkasga 10 mm qadam bilan spiral shaklida o'rash natijasida hosil qilingan. Setkali silindrni (baraban) aylanish chastotasi 27 ayl/min.

Barabanni ichida perosi o'ng o'ramli qadami 400 mm / metr shnek joylashgan. Shnekni diametri barabanni ichki diametriga teng. Shnek barabanga biktir qilib o'rnatilgan bo'lib u baraban bilan birgalikda aylanadi.

Baraban ostida chiqindilarni to'plash qurilmasi joylashgan. U bunker ko'rinishida bo'lib tagida vakum klapanli shnek o'rnatilgan.

"Murey" firmasining barabanli quritgichining paxta quritish texnologiyalari quyidagicha. Nam paxta oziqlantirgich orqali barabanning qabul qilish qismiga uzatiladi, u yerda paxta shnek bilan ilashib barabanning aylanuvchi qismiga kiritiladi. Quritish agenti oqimi ta'sirida paxta barabanning shnegi bo'yicha qarama-qarshi tomoniga tashlanadi. Setkaga urilish natijasida iflosliklar chiqindi to'plash qurilmasining bunkeriga tushadi. Baraban aylanib paxta yana setkaga tushadi shnek yordamida paxta har tushishida baraban o'qi bo'ylab surilib boradi. Shunday qilib paxta bir necha karra issiq xavo bilan aralashib quritish jarayoni amalga oshirib boriladi. Bunda paxta tolasi yoyilib quritish agenti bilan aralashib quritish jarayonini amalga oshirish bilan birgalikda baraban setkasiga sirpanib mayda chiqindilardan tozalanish jarayoni ham amalga oshiriladi. Shunday qilib paxta barabandan o'tib bo'shatish kamerasiga tushadi. Ajratilgan iflosliklar esa shnek yordamida vakum-klapan orqali tashqariga chiqariladi. Paxtani quritgichda bo'lish vaqti 10-12 s. Quritgichning unumdorligi paxtani namlik miqdoriga bog'liq bo'lib paxta tozalash zavodining texnologik zanjirining unumdorligiga mos keladi.

Namlikni olish xususiyati quritgichga berilayotgan issiqlik miqdori bilan boshqariladi. Barabanli quritgichning ham namlikni olishi 2-3% ni tashkil qiladi. Shuning

uchun ham namligi 10 % dan yuqori bo'lgan paxtalarga ketma-ket 2 yoki 3 ta barabanli quritgich qo'yiladi.

“Murey” firmasining barabanli paxta quritgichining texnik tavsifi quyidagicha:

No	Ko'rsatgich nomi	qiymati
1.	Unumdorligi kg/soat Qurtilgan paxta bo'yicha Namligi bo'yicha	 8000 gacha 200 gacha
2.	Xarorat °S Quritish agenti Paxtani qizishi	180 gacha 50 gacha
3.	1 kg namlikni bug'lantirish uchun sarf bo'ladigan solishtirma issiqlik, kkal/kg	5000
4	Baraban uzunligi mm.	6000
5	Diametri mm	2134
6	Barabanning aylanish chastotasi ayl/min	27
5	Elektro dvigatel quvvati kvt	15
7	Massasi kg	6500

2. MAVZUNI ASOSLASH.

Andijon paxta ochiq aksiyadorlik jamiyatida bitiruv malakaviy amaliyot o'tash davomida kuzatuv tadqiqotlari va adabiyotlardan olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki paxta quritish qurilmalari juda ko'p va xilma-xil bo'lib ulardan asosiysi barabanli quritgichlardir.

O'zbekiston Respublikasidagi barcha paxta tozalash zavodlarida faqatgina barabanli quritish qurilmalaridan foydalanilar ekan. Bu quritish qurilmasining ish unumdorligi soatiga 10 tonna paxta bo'lib, namlikni olish qobiliyati 10% ni tashkil qiladi.

AQShda qo'llaniladigan barabanli quritish qurilmasining konstruktiv tuzilishi ancha murakkab bo'lishiga qaramay uning ish unumdorligi kam. Tokchali-bashnyali quritish qurilmasining esa nam olish qobiliyati 3-4% dan oshmaydi. Ishlab chiqarishdagi barabanli quritish qurilmalarining asosiy kamchiliklari juda ko'p issiqlik energiyasini sarf qilish bilan bog'liqdir. Barabanning uchdan bir qismida paxta issiq xavo bilan aralashib qolgan uchdan ikki qismidagi xavo paxta bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotda bo'lmay tashqariga chiqib ketadi. Undan tashqari paxtani issiqlik o'tkazish xususiyati juda yomon bo'lgani uchun ham barcha issiq paxtani ichiga o'tishi qiyin va qisqa vaqt ichida paxtadagi barcha namlikni bug'lantirish uchun vaqt yetarli bo'lmaydi.

Dastlab shnekli quritgichlardan ham foydalanilgan, lekin nam yo'qotish xususiyati kam deb ishlab chiqarishdan olib tashlangan. Bu quritish qurilmasining abzallik tomonlari ham bo'lgan. Masalan paxtani bir joydan ikkinchi joyga tashish bilan quritish jarayonini birgalikda olib borish imkoniga ega. Bunda tashish jarayonida shnek ostiga qo'yilgan to'rli setka yuzasidan paxtani sidirib olib o'tish vaqtida mayda iflosliklardan ham tozalanib borishi mumkin. Eng asosiysi paxta shnekka o'rnatilgan qoziqchalar bilan bilan titkilanishi va tashilishi jarayonida issiq xavo bilan aralashishi ham osonlashadi. Bu degani paxtani quritish samaradorligi ham ortadi degani bo'ladi. Shunday qilib shnekli quritish qurilmasida paxta hamma vaqt yangi qizigan xavo bilan uzluksiz aralashib turishi natijasida uning namligi samarali yo'qotilib boradi. 2011 yili O'zbekiston "Paxta

sanoat” uyushmasi eng yaxshi paxta quritish qurilmasi uchun tanlov e'lon qilgan bo'lib unda birinchi o'rinni egallagan g'olibga avtomashina 2-3 o'rin soxiblariga esa katta pul va'da qilingan. Bularni e'tiborga olgan xolda men ham o'z bitiruv malakaviy ishimda “Paxta quritish qurilmalarida qoziqli barabanlardan foydalanish samaradorligi” mavzuni tanlab oldim. Mavzuni bajarish natijasida issiqlik energiyasidan imkoni boricha to'la foydalanish imkonini beruvchi quritish mashinasi yaratiladi. Bunda qoziqli barabanlardan foydalanish paxtani titkilash va issiqlik bilan yaxshi aralashish va issiqlik energiyasidan unumli foydalanish imkoni yaratiladi.

3. To'g'ri oqimli quritish qurilmasi uchun qoziq-vintli barabanni konstruksiyalash.

3.1. Qoziq-vintli barabanning tuzilishi.

Qoziq vintli quritish qurilmasi quyidagi detal va uzellardan tashkil topgan.
(Varoq1)

Issiq xavo o'tkazuvchi truba 1, flyansli baraban 2 ga qo'zg'aluvchan qilib biriktirilgan. Flyansli baraban 2 qoziq vintli truba 3 ga qo'zg'almas qilib rezbali maxkamlangan. Qoziq vintli truba 3 ikki tomonidan: bir tomonidan flyansli baraban va ikkinchi tomonidan diskli tayanchlar orqali tayanib turadi.

Flyansli baraban 3 ta rolik orqali, diskli tayanch esa podshipniklar orqali qo'zg'almas tayanchga biriktirilgan. Diskli tayanch valiga zanjirli uzatma orqali aylanma xarakat beriladi. Flyansli barabanga ulangan turbali o'tkazgich orqali kelayotgan qizigan xavo qoziq vintli turbani ichiga kiradi. Qizigan xavo qoziqlarni uchiga kesilgan maxsus teshiklar orqali quritish kamerasi 5 ga chiqadi.

Qoziq vintli baraban maxsus kamera ichida joylashgan. Qoziq vintli baraban ostida paxta yurishi uchun to'rli setka qo'yilgan. Qoziq uchi bilan to'rli setka orasidagi masofa 18-20 mm ni tashkil qiladi. To'rli setkadan mayda iflosliklar tushib turadi. Qoziq vintli barabandan tushgan mayda iflosliklarni quritish qurilmasidan tashqariga chiqarish uchun diametri 250 mm li shnek o'rnatilgan.

Shnek osti jelobasi va quritish kamerasi qopqog'i o'zaro germetik qilib biriktirilganligi uchun kameradan issiq xavo tashqariga chiqmaydi.

Qoziq vintli barabanning uzunligi 7 m bo'lib u ikki tomonidan tayanchlar orqali korpusga maxkamlangan. Qoziq vintli quritish qurilmasining quritish samaradorligini oshirish uchun, uzunligi 7 m li qoziq vintli barabandan ketma ket ikkita yoki uchtasini o'rnatish mumkin. Bunda sex maydonining yuzasidan unumli foydanish uchun qoziq vintli barabanlarni ustma ust joylashtirish mumkin. Yoki uzoqroq masofaga tashishni ta'minlash uchun esa ketma-ket joylashtirish zarur bo'ladi.

3.2. To'g'ri oqimli quritish qurilmasining ishlash tartibi.

Quritish qurilmasining kamerasiga paxta tushadigan tuynugining ustiga shaxta o'rnatilgan bo'lib uning ostiga ikki valikli ta'minlagich joylashtirilgan. Ta'minlagich

paxtani kerakli unumdorlikda bir me'yorda kameraga uzatib turadi. Kameraga kiritilgan paxta qoziq vintli baraban sirtiga kelib tushadi. Qoziq vintli baraban minutiga 400 marta aylanib turganligi uchun uning ustiga tushgan paxta

titkilanib vint chizig'i bo'yicha xarakatlana boshlaydi. Paxtaga faqat qoziq ta'sir etganligi uchun har bir qoziq o'zining diametriga teng bo'lgan paxtani ilib olib o'z yo'nalishi bo'yicha suradi.

Qoziqlarni yon tomonining tepa qismida baraban o'qi bo'ylab qizigan xavoni chiqarib turuvchi teshiklar mavjud. Bu teshiklardan chiqayotgan qizigan xavo paxtani surilish yo'lga parallel bo'lganligi uchun paxtani xarakatlanishiga yordam beradi. Shu bilan birgalikda paxta doimo qizigan xavo yordamida surilib o'z namligini yo'qotib boradi. Bu bilan quritish samaradorligi ham ortishi mumkin. Shunday qilib qoziq tirqishlaridan chiqayotgan qizigan xavo paxta tarkibidagi namlikni bug'lantirish bilan birga uni baraban o'qi bo'ylab surilishiga yordam qiladi. Baraban qoziqlari ta'sirida paxta kolosnikli to'r yuzasi bo'ylab xarakatlanadi. Shu bilan birgalikda qoziq uchidan chiqib turgan qizigan xavo bilan doimiy muloqatda bo'lib, o'z tarkibidagi namlikni va iflosliklarni yo'qotib boradi.

Baraban sirtiga o'rnatilgan g'ovak qoziqlar vintsimon qilib o'rnatilganligi uchun paxtani surish tezligi vint qadamiga va barabanni aylanish chastotasiga teng bo'ladi.

3.3. Qoziq vintli quritish qurilmasining issiqlik sarfi

va quvvatini xisobi.

Paxtani quritish jarayonining issiqlik balansi quyidagi formula yordamida topiladi.

$$Q_{\text{yumum}} = Q_{\phi} + Q_{\text{atm}}$$

Qaerda: Q_{ϕ} - jarayon uchun foydali issiqlik sarfi;

Q_{atm} – atrof muhit uchun yo'qotiladigan issiqlik sarfi.

$$Q_{\phi} = G * C (t_{\text{devop}} - t_{\text{metp}}) + W * r$$

Qaerda: C – paxta tolasining issig'lik sig'imi;

t_{devop} - quritish qurilmasining devorining temperaturasi;

t_{metp} - quritilgan paxta temperaturasi;

W - bug'lanayotgan namlik sarfi;

r - namlikni bug'ga aylanish uchun sarf bo'ladigan issiqlik miqdori, bu qiymat ma'lumotnomadan olinadi.

$$W = G ((W_1 + W_2)/(100-W_2))$$

Bu yerda W_1, W_2 paxtaning boshlang'ich va ohirgi namligi;

$$Q_{\text{умум}} = Q_{\phi} + Q_{\text{атм}} = 1,06 * [G * C * (t_{\text{девор}} - t_{\text{метр}}) + G * ((W_1 + W_2)/(100 - W_2)) * r]$$

Elektrovdigatel quvvati hisobi:

Qoziq vintli quritish qurilmasi yuritma mexanizmi uchun zaruriy elektrovdigatel quvvatining hisobi quyidagicha amalga oshiriladi:

$$N = \frac{K_c}{n} \left[\frac{\pi \cdot L}{3600 \cdot S_b} (2D_b M_1 + D_b U_2 + S_b M_1) + 0,5 \cdot n \cdot D_{\text{жс}}^2 (k_b^2 D_b L) \right], (\kappa \text{Вт})$$

Bu yerda: n – qoziq qintli quritish qurilmasi ishlab chiqarish samaradorligi, kg/sek;

$k_c = 1,3 - 1,4$ hisobga olinmagan qarshilik koeffisienti;

n – yuritmaning f.i.k.;

L – shnekni (vint) ishchi qismining uzunligi, m;

$D_{\text{шк}}$ – shnek jelobasining ichki diametri, m;

D_b – shnek vintining diametri, m;

$M_1 = M_2 = 1,3$ paxta va chiqindining vint jelobasi va kurakchalariga ishqalanish koeffisienti;

$K_b = 0,05 - 0,06$ vintni o'z vaznini hisobga oluvchi emperik koeffisienti.

$$N = k_3 \frac{P \cdot V}{n}$$

Bu yerda: $k_3 = 1,15 \div 1,25$ - quvvatning zaxira koeffisienti;

P – vint valida hosil bo'ladigan tortish kuchi, N.

Gorizontal holda joylashgan shnek vintining validagi tortishish kuchi quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$P = 10 \cdot q \cdot L \cdot W = \frac{\pi}{36 \cdot V} L \cdot W$$

Bu yerda : q – jelobadagi paxtani yalpi massasi;

$$q = \frac{\pi}{3,6 \cdot v}$$

v – paxtani jelobadagi tezligi;

$$v = \frac{S \cdot b \cdot n}{60};$$

W - paxta xarakatining qarshilik koeffisienti tajriba yo'li bilan aniqlanadi. Hisob uchun

$W=35-40$ қабул қиламиз. U holda:

$$N = K_3 \frac{27,8 \cdot 0,4 \cdot 2,7 \cdot 50}{10^3 \cdot 0,85} = 2,2 \text{ кВт}$$

$N = 3,0 \text{ кВт}$ qabul qilamiz.

Xulosa va takliflar

Bajarilgan ishlardan kelib chiqib quyidagi xulosa va takliflarni qilish mumkin.

1. O'zbekiston paxta tozalash zavodlarida ishlatiladigan barabanli quritish qurilmalarining energiya sarflari (elektr va issiqlik) ancha yuqori.
2. Quritish qurilmasida baraban ko'ndalang kesim yuzasi bo'yicha uchdan bir qismidagina paxta qizigan havo bilan aralashish imkoniga ega bo'lib, qolgan uchdan ikki qismdan foydalanish samaradorligi juda past.
3. Qoziq vintli quritish qurilmasi paxtani tashish va quritish jarayonini birgalikda amalga oshiradi.
4. Val vazifasini bajarish maqsadida trubali o'tkazgichdan foydalanish ishchi kameradagi haroratni ko'tarilishiga sabab bo'ladi va quritish jarayoniga ijobiy ta'sir qiladi.
5. Pero sifatida qoziqli vintlarni kanali orqali teshiklardan chiqib turgan qizigan havo paxta bilan yaxshi aralashib namlikni samarali yo'qolishiga sabab bo'ladi.
6. Qoziq teshiklaridan chiqayotgan qizigan havo paxtani qurilish qurilmasi bo'ylab surishga ta'sir qilib uning xarakatini osonlashtiradi.

XAYOTIY FAOLIYAT XAVFSIZLIGI

Ma'lumki, O'zbekistonda paxta sanoati uzoq yillar davomida shakllanib, rivojlanib kelgan ishlab chiqarish jarayonidir. Bu mukammal jarayon tabiiyki insoniyatga, atrof-muhitga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazmay qo'ymaydi, Bu ta'sirlarni kamaytirish muhim omillardan hisoblanadi. Shuni inobatga olgan holda quyidagi tadbirlar bo'lishi lozim:

- paxta tozalash korxonasi xududida ishlaydigan ishchilarining ish joyida texnika xavfsizligi ta'minlanishi;
- avtotransport bilan ishlashda, bunt maydonchalariga va yopiq omborlarga chigitli paxtani qabul qilish, saqlash va tashish paytida mexnat va texnika xavfsizligida qo'yiladigan talablar;
- asosiy ishlab chiqarish bo'limlari ichidagi o'rnatilgan uskunalarning xavfsiz ishlashini ta'minlash masalasi;
- sex ichida va tsex oraliq xom ashyo va tayyor mahsulotlarni mexanik-transport vositalarida, moslamalarida texnika xavfsizligini saqlashda amalga oshiriladigan ishlar;
- paxta tozalash korxonalarida chang va har hil zararli chiqindilar ajratuvchi texnologik uskunarlar va mexanizmlar, ularning amaliyot o'tish davridagi axvoli, maxalliy chang surishda ishlatiladigan pnevmotransport vositalarining samaradorli ishlashiga qo'yiladigan talablar;
- har bir asosiy texnologik uskunalarining ishlash rejimi;
- chang va zararli chiqindilarni bartaraf qilish uslublarini o'rganish;
- atrof muxitni muxofaza qilish va ekologiyani yaxshilash masalasi bo'yicha paxta tozalash korxonasida olib boriladigan ishlar va tadbirlar;
- texnologik uskunalarning xavfsiz ishlashini ta'minlash.

Texnika xavfsizligi va sanoat sanitariyasi

Paxta tozalash zavodlarida zamonaviy uskuna va texnikalardan foydalanib chigitli paxtani qayta ishlashning muvofiqlashtirilgan texnologik jarayonlarining qo'llanishi, uskunalar majmualarining «odam-mashina» tizimining murakkablashuviga va mexnat xususiyatlarining o'zgarishiga olib keldi. Bu esa o'z navbatida xavfsizlikni ta'minlash masalalariga e'tiborni kuchaytirishni, mexnat jarayonida avval sezilmagan ishlab chiqarish xavflari va zararlarini hamda yangidan vujudga kelayotgan xavf va zararlar, omillarni doimiy ravishda o'rgatishni, ishlovchilarga xavfsiz, sog'lom mexnat sharoitlarini yaratib berishni talab qiladi. Chigitli paxta xom ashyosini tayyorlash, saqlash, quritish, tozalash va boshqatdan qayta ishlash jarayonlarida foydalanilayotgan murakkab texnologik uskunalar, kichik mexanizasiya vositalari yuqori bosimli gidravlik presslar va tez aylanuvchi mexanizmlar hamda arrali silindrlar, arrali va qoziqchali bababanlar bilan jixozlangan uskunalarining benuqson ishlashini, ishlab chiqarish jarayonlarida ko'p miqdorda zarur bo'lgan elektr quvvati, yoqilg'i va tabiiy gazdan foydalanilishi yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya etilishini ta'minlashga aloxida e'tibor berishni taqazo etadi. Amaldagi yong'in va xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilmaslik, ishlab chiqarish jarayonlarida, ishchilarning xayotini xavf ostida qoldirib, oxir oqibatda baxtsiz xodisalar va katta miqdordagi moddiy zararli yong'inlar sodir bo'lishiga olib kelishi mumkin. Paxta tozalash zavodlariga mexnatni muxofaza qilish va mexnat xavfsizligini ta'minlashda quyidagi masalalar xal qilinadi: Mexnatni muxofaza qilish - bu tegishli qonun va me'yoriy xujjatlarga binoan amal qiluvchi, insonning mexnat jarayonidagi xavfsizligi, sixat-salomatligi va ish qobiliyati saqlanishini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy, sanitariya-gigiena hamda davolash-profilaktika tadbirlari va vositalari tizimidir. Boshqacha aytganda, korxona ishchilari uchun soglom va xavfsiz mexnat qilish sharoitlarini ta'minlaydigan xuquqiy, texnik va sanitar me'yorlari tizimi-mexnatni muxofaza qilish deyiladi.

Bu tizimning tarkibiy qismlari:

- mexnat qonunlari;

- xavfsizlik texnikasi;
- ishlab chiqarish sanitariyasidir.

Mexnat qonunlari - asosini Konstitutsiyaga asoslangan mexnat kodeksi va xukumat qarorlari tashkil qiladi. Xavfsizlik texnikasi - tashkiliy, texnik tadbirlar va vositalar tizimi bo'lib, jaroxatlanishga olib keluvchi ishlab chiqarish omillarining ishlovchilarga ta'sirini bartaraf qilishga yonaltirilgan. Ishlab chiqarish sanitariyasi - tashkiliy va sanitar-gigienik tadbirlar va vositalar tizimi bo'lib, ishlovchilarni kasallanishiga olib keluvchi ishlab chiqarish omillari ta'sirini oldini olishga qaratilgan. Texnika xavfsizligi bo'yicha yoriqnomalar berish va bilimlarni tekshirish «Paxtatozalash sanoati korxonalari uchun texnika xavfsizligi va ishlab chiqarish sanitariya qoidalarini» ga muvofiq ravishda olib boriladi. Ish joyini, bajariladigan ish uchun belgilangan texnika xavfsizligi qoidalarining hamma talablariga rioya qilgan xolda tayyorlash lozim. Texnika xavfsizligi va sanoat sanitariyasi bo'yicha yoriqnomalarni barcha ishlarga berish hamda ish joylaridagi ko'rinarli va yaxshi yoritilgan joyda, oyna ostida osib quyilishi talab etiladi. Yangi ishga kirgan va bir ishdan boshqasiga ko'chirilgan barcha xodimlar, ular ishlaydigan uskuna, agregat hamda mexanizmlarning tuzilish va xususiyatlari bilan oldindan tanishishlari, texnika xavfsizligini bilishlari, shuningdek ish joylarida xavfsiz ishlash usullarini ko'rib o'rganishlari kerak. Uskunalarda nosozliklarni bartaraf etish, tozalash va moylashga oid barcha zarur ishlarni faqat uskuna elektr manbaalaridan uzib qo'yilgandan va ishga tushirish uskunasi ogoxlantiruvchi plakat osib qo'yilgandan keyin amalga oshiriladi. Uskunani to'xtatgan va plakat osgan shaxsgina uskunaning ishga tushirish qurilmasidan ogoxlantiruvchi plakatni olishi va uni yana ishga tushirishi mumkin. Uskunaning ish xolatida qurilmaning to'siqlarini, eshiklarini ochish va olib qo'yish ta'qiqlanadi.

Uskunalariga texnika xavfsizligi bo'yicha qo'yiladigan umumiy talablar:

- hamma turg'un uskuna va agregatlarni mustaxkam asos yoki poydevorga o'rnatish, ularni tayyorlovchi zavodlarning ko'rsatmasiga binoan maxkamlash kerak;
- mexanizmlarning jami aylanadigan va xarakatlanadigan qismlari (vallning chiqib turgan uchlarini, xarakatga keltiruvchi tishli va tasmali uzatmalar) ishonchli to'siq va qopqoqlar bilan yopish lozim;
- xizmat ko'rsatish uchun tez-tez yaqinlashishni talab qiladigan joylarda mashina xarakatlantirgichi bilan elektr to'skinchi bo'lgan to'siq va qopqoqlar o'rnatiladi;
- hamma xarakatlanuvchi mexanizm va dastgoxlar, uskuna va agregatlarni, ularning to'siq va blokirovkalarini soz xolatda saqlash tavsiya qilinadi. Yopiq va o'yiqlari bo'lgan shkiylarni uskunaga o'rnatishga ruxsat etilmaydi;
- uskuna, mexanizm va dastgoxlar yurgizish qurilmalariga ega bo'lishi kerak, bu ularning o'z-o'zidan ishlashiga imkon bermaydi va oson to'xtatishni ta'minlaydi;
- barcha uskuna va dastgoxlarda kirgizish moslamalarini ko'rinarli joylarda, tez-tez olinmaydigan qismlarda joylashtirish kerak;
- barcha ishlab chiqarish uskunalarining pol yoki ish maydonchasi satxida 2m. gacha balandlikda joylashgan, aylanadigan va xarakatlanadigan qismlari to'siq bilan jixozlanishi kerak.
- uskuna korpusidagi to'siqlar, eng xavfli uzellarning eshik va qopqoqlari xavfsizlik bloki bilan jixozlanishi talab etiladi;
- ish jarayonida chang ajratuvchi texnologik uskunalarni, zichlash hamda xavo suruvchi qurilmalar va ishlab chiqarish binolarida me'yoriy ish sharoitlarini ta'minlovchi moslamalar bilan ta'minlanishi lozim;
